


Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov Ro'zi Choriev nomidagi Surxondaryo ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internatida bo'lib, oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish test sinovlarini tashkil etish jarayonlari bilan tanishdi.



Maktab-internatida test sinovlari o'tkaziladigan xonalar, abituriyentlarning ota-onalari va yaqinlari uchun kutish joylari namunali tashkil etilgan. Viloyat rahbari shu yerning o'zida oliy ta'lim muassasalari rahbarlari bilan ham uchrashuv o'tkazib, test sinovlari o'tkaziladigan ob'ektlarni shay holatga keltirish, sinovlarni belgilangan tartiblarda tashkil etish masalalari muhokama qilindi va chora-tadbirlar belgilab olindi.

Shundan so'ng, viloyat rahbari Termiz shahridagi yer maydonlari va bino-inshootlaridan samarasiz foydalanilayotgan ob'ektlar mavjud bo'lgan "Saxovat" va "Navro'z" mahallalarida bo'ldi. Ob'ektlardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish bo'yicha yo'l xaritalari ishlab chiqish va uni amalga oshirilishini nazorat qilish bo'yicha mutasaddilarga aniq topshiriqlar berildi.

Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati